

SHAXSNI JINOIY JAVOBGARLIKKA TORTISH YOKI HUKMNI IJRO ETISH INSTITUTINING MILLIY VA XALQARO HUQUQDA AMALGA OSHIRILISHINING DOLZARB MUAMMOLARI



Nasrullayev Firdavs Suxrobovich

Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish maqsadida ushlab berish (ekstraditsiya) institutining huquqiy asoslari tahlil etilgan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslari normalari, Minsk va Kishinyov konvensiyalari hamda ikki tomonlama shartnomalar amaliyoti o'rganilgan. Ekstraditsiya sohasida qonunchilikdagi ziddiyatlar va maxsus qonun yo'qligi kabi muammolar ko'rsatilgan. Muallif milliy va xalqaro huquq normalarini uyg'unlashtirish zarurligini ilmiy asoslab, takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar bergan.

Kalit so'zlar: ekstraditsiya, xalqaro huquqiy hamkorlik, jinoyat-protsessual huquq, milliy qonunchilik, inson huquqlari, Minsk konvensiyasi, Kishinyov konvensiyasi, huquqiy kafolatlar.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РЕАЛИЗАЦИИ ИНСТИТУТА ПРИВЛЕЧЕНИЯ К УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ИЛИ ИСПОЛНЕНИЯ ПРИГОВОРА В НАЦИОНАЛЬНОМ И МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ

Аннотация. В статье проанализированы правовые основы института выдачи (экстрадиции) лица для уголовного преследования или исполнения приговора. Изучены нормы Конституции, Уголовного и Уголовно-процессуального кодексов Узбекистана, Минская и Кишинёвская конвенции, а также практика двусторонних договоров. Выявлены такие проблемы, как противоречия в законодательстве и отсутствие специального закона об экстрадиции. Автор научно обосновывает необходимость гармонизации национальных и международных норм и выдвигает практические предложения по совершенствованию данного института.

Ключевые слова: экстрадиция, международное правовое сотрудничество, уголовно-процессуальное право, национальное законодательство, права человека, Минская конвенция, Кишинёвская конвенция, правовые гарантии.

TOPICAL ISSUES IN THE IMPLEMENTATION OF THE INSTITUTION OF CRIMINAL LIABILITY OR EXECUTION OF SENTENCES IN NATIONAL AND INTERNATIONAL LAW

Abstract. The article analyzes the legal foundations of the institution of extradition for criminal prosecution or execution of a sentence. It examines the provisions of the Constitution, the Criminal and Criminal Procedure Codes of Uzbekistan, the Minsk and Chisinau Conventions, as well as the practice of bilateral treaties. The study highlights problems such as contradictions in legislation and the absence of a special extradition law. The author scientifically substantiates the need to harmonize national and international norms and puts forward practical recommendations for improving this institution.

Keywords: extradition, international legal cooperation, criminal procedure law, national legislation, human rights, Minsk Convention, Chisinau Convention, legal guarantees.

Zamonaviy dunyoda jinoyatchilik muammosi faqat ayrim davlatlar uchun emas, balki butun insoniyat uchun xavf tug'dirmoqda. Bugunga kelib jinoyatchilikning yangidan yangi turlarining paydo bo'lishi, xususiyatining murakkablashuvi munosabati bilan davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi hamkorligi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda ayrim davlat hududida jinoyat sodir etib, keyinchalik boshqa davlatlarda panoh topayotgan ayblanuvchilar soni tobora ortib bormoqda. Respublikamiz miqyosida ham qidiruv e'lon qilingan shaxslar soni yil sayin ortayotgani statistik ma'lumotlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan: 2022-yilda **13 119 nafar**, 2023-yilda **15 924 nafar**, 2024-yilda **17 180 nafar**, shuningdek, 2025-yilning 7 oyi mobaynida **12 457 nafar** shaxsga nisbatan qidiruv e'lon qilingan [1]. Ushbu raqamlar dinamikasi mamlakatning jinoyatchilikka qarshi kurash va uning profilaktikasi yo'nalishida boshqa davlatlar bilan xalqaro hamkorligining naqadar dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish doirasida davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurashdagi xalqaro hamkorlik shakllardan biri ekstraditsiyadir. Davlatlarning ekstraditsiya sohasidagi hamkorligi zamonaviy xalqaro jinoyat huquqi bilan tartibga solinadigan sohalardan biri hisoblanadi. Har qanday jinoyat uchun jazo muqarrar bo'lishi prinsipi xalqaro jinoyat huquqida ilgari surilgan qat'iy qoida sifatida qaraladi. Shu bois, mazkur prinsipni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qoidalarni belgilash va tartibtaomillarni soddalashtirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Biroq, davlatlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish jarayonida tartib-qoidalarni ishlab chiqish oson kechmaydi, chunki bu jarayonda davlatlarning suveren manfaatlari to'qnashadi va ular ko'p hollarda mazkur masalaga turlicha yondashadilar. Ekstraditsiya instituti doimiy ravishda takomillashib boradi, bunday hamkorlik esa xalqaro munosabatlarning rivoj-

lanishiga xizmat qiladi [2; 33–34 - b.].

Sodir etgan jinoyati uchun jazoga tortilishi lozim bo'lgan shaxslarni topshirish jinoyatchilikka qarshi kurashda davlatlar hamkorligining samaradorligini oshiruvchi vosita hisoblanib, mintaqaviy hamda ikki tomonlama davlatlararo hamkorlik darajasida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, MDHga a'zo davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari o'rtasidagi asosiy hamkorlik shakllariga qo'shma tergov va tezkor-qidiruv harakatlarini amalga oshirish, so'rov va iltimoslarni bajarish, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlik qilish bilan bir qatorda quyidagilar kiradi:

- shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish, hukmni ijro etish hamda jazoni o'tashi uchun mahkumlarni topshirish, tegishli shartnomalarda nazarda tutilgan tartibida;

- ekstraditsiya kelishuviga yo'l qo'yilmagan hollarda, boshqa davlat hududida jinoyat sodir etgan o'z fuqarolarini jinoiy javobgarlikka tortishni ta'minlash.

Har bir davlat jinoyatchilikka qarshi kurashda boshqa davlatlar bilan ko'p tomonlama yoki ikki tomonlama shartnomalar tuzadi. Ushbu shartnomalarda ekstraditsiya instituti xalqaro jinoyat huquqining eng muhim institutlaridan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Ekstraditsiya to'g'risidagi xalqaro shartnomalarning maqsadi – jinoyat sodir etgan shaxslarning jazodan qochib qutilishiga yo'l qo'ymaslik. Biroq, shunga qaramay, ekstraditsiyani tartibga soluvchi ko'plab xalqaro shartnomalar mavjud bo'lsa-da, ular mukammal emas. Bunga yaqqol dalil sifatida bugungi kunda ekstraditsiya sohasida yagona xalqaro standartlarning mavjud emasligini ko'rsatish mumkin.

Shu tariqa, ekstraditsiya instituti davlatlar o'rtasidagi xalqaro hamkorlik sohasida birlashtiruvchi vazifalarni bajaradi, jinoyat-protsessual sohada davlatlarning xalqaro majburiyatlarni amalga oshirishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Davlatlar o'rtasida jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy hamkorlikning yetarli darajada emasligi jinoyatchilar tomonidan qonun buzilishga sabab

bo'lib, ularga bir davlatda jinoyat sodir etib, keyin boshqa davlat hududida yashirinishi va shu orqali jinoiy jazodan qutilib qolishi holatlari kuzatilmoqda. Ayrim hollarda esa ularning jinoiy faoliyatini davom ettirishga ham sharoit yaratilmoqda.

Ekstraditsiya tartib-qoidalarining murakkabligi, asosan, milliy qonunchilikning mukammal emasligi yoki tegishli normalarning yo'qligi, xalqaro va milliy huquq normalarini qo'llashdagi muammolar, fuqarolik va boshqa omillar bilan bog'liq. Shu bilan birga, jinoyatchilikning nafaqat milliy, balki xalqaro xavfsizlik asoslariga ham tahdid solayotganligi vaziyatni yanada og'irlashtirmoqda [3; 158-b.].

Hozirgi kunga kelib, shaxsni topshirish institutining o'rni ortib bormoqda. Bu esa ushbu sohada davlatlarning faoliyati kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Yangi qonunlar qabul qilinmoqda, xalqaro shartnomalar tuzilmoqda, xalqaro tashkilotlar tomonidan rezolyutsiyalar qabul qilinmoqda, sud amaliyoti esa tobora kengayib bormoqda.

Hozirgi vaqtda ekstraditsiya muammolarini tadqiq etishning maqsadga muvofiqligi jinoyat-protsessual qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etish, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish hamda xalqaro huquq talablari va standartlariga muvofiqlashtirish zarurati bilan belgilanadi. Shu bilan birga, ayni paytda ekstraditsiyaga oid ko'plab masalalar yetarlicha o'rganilmagan, mazkur institutning nazariy tushunilishi va uning huquqiy normalarini amaliy jihatdan to'g'ri qo'llash bilan bog'liq ko'plab dolzarb muammolar hal etilmay qolmoqda.

Topshirish instituti – xalqaro shartnomalar va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalari asosida ayblanuvchi yoki sudlangan shaxsni uning hududida bo'lib turgan davlatdan boshqa davlatga jinoiy javobgarlikka tortish yoki hukmni ijro etish uchun topshirish [4; 45-46- b.].

Shuni ta'kidlash joizki, ayrim davlatlar tegishli Yevropa Konvensiyalari ishtirokchisi bo'lsalar-da, ko'pincha so'ragan davlatdan o'z fuqarolarini topshirishni so'rab murojaat qiladilar va shu tariqa Konvensiyaning 6-moddasi – “O'z fuqarolarini

topshirish” qoidalarini inkor etadilar. Bunday amaliyot xalqaro huquqning asosiy prinsiplariga zid bo'lib, unga ko'ra davlat o'z zimmasiga olgan shartnoma-huquqiy majburiyatlarga rioya etishi shart.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkin, davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi hamkorligida samarali yutuqlar mavjud bo'lishiga qaramay, xalqaro jinoyatga oid adolatning muhim institutlaridan biri bo'lgan ekstraditsiyani amaliy tatbiq etishda yagona yondashuv mavjud emas.

Tarixdan ma'lumki, shaxsni topshirish institutining shakllanishi xalqaro huquq taraqqiyoti bilan yonma-yon ravishda kechgan bo'lib, barcha tarixiy davrlarni qamrab oladi. Ekstraditsiya instituti jahon hamjamiyatida xalqaro xavfsizlik tizimini barpo etish zarurati paydo bo'lishidan ancha oldin ma'lum bo'lib, insoniyat tinchligi va xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning oldini olish vazifalarini hal etishga qaratilgan.

Ekstraditsiya amaliyoti mavjudligi dalil sifatida miloddan avvalgi 1296 (1278) yilda Misr fir'avni Ramzes II bilan xetlar podshosi Xettushil III o'rtasida tuzilgan shartnomani ko'rsatish mumkin. Unda “agar kimdir Misrdan qochib, xetlar yurtiga borsa, xetlar podshosi uni ushlab qolmaydi, balki Ramzes yurtiga qaytarib beradi” deb qayd etilgan. Shartnoma matnidan ko'rinib turibdiki, bu holatda faqat jinoyat sodir etgan shaxslar emas, balki xetlar mamlakatidan Misr talab qilgan har qanday shaxs topshirilishi nazarda tutilgan [5; 87- b.].

Qadimgi Yunon davrida afinaliklar Make-doniya podshosi Filippga uning hayotiga suiqaqd qilgan shaxslarni topshirishga rozi bo'lganlari, axeyliklar esa Spartaga uning bir qishlog'i hujum qilgan fuqarolarini topshirmagan taqdirda ittifoqni buzish bilan tahdid qilganlari ma'lum.

Biroq, quldorlik davrida davlatlar o'rtasidagi parokandalik va raqobat sabab ekstraditsiya instituti juda kam qo'llanilgan bo'lsa, feodalizm davridan boshlab va keyinchalik ekstraditsiya to'g'risidagi shartnomalar soni ortib bordi hamda siyosiy sabablarga ko'ra ta'qib qilinayotgan

shaxslarni (*so'ralayotgan davlat hududida boshpana berilgan shaxslarni*) va o'z fuqarolarini topshirmaslik prinsiplari mustahkamlandi [6; 48-b.].

Xalqaro huquq qoidalariga muvofiq, topshirish tegishli davlatlar o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Bu ikki tomonlama shartnoma yoki ko'p tomonlama konvensiya bo'lishi mumkin, unda ham so'rovchi ham so'ralayotgan davlat ishtirokchi bo'lishi shart. Yevropa tizimiga asoslangan topshirish haqidagi xalqaro normalar Yevropa Kengashi tomonidan 1957-yilda qabul qilingan. Jinoyatchilarni topshirish to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasida mustahkamlangan bo'lib, keyinchalik BMT Bosh Assambleyasining 1990-yil 14-dekabrda rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Topshirish to'g'risidagi naminaviy shartnomaning asosini tashkil etgan. Topshirish masalalari, shuningdek, 1993-yil 22-yanvardagi Minsk [7] hamda 2002-yil 07-oktyabrda Kishinyov [8] MDH doirasida imzolangan Fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi konvensiyalari bilan tartibga solingan.

Xalqaro shartnomalarning muqaddimalarida qayd etilishicha, shartnoma tuzuvchi davlatlar suverenitetga hurmat, teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik hamda xalqaro huquqning boshqa normalari asosida quyidagi maqsadlarga erishishga intiladilar:

- jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida hamkorlikni mustahkamlash va kengaytirish;
- jinoyatchilikka qarshi kurashda qo'shma sa'y-harakatlarni samaraliroq qilish;
- shaxsni topshirish jarayonini huquqiy jihatdan muvofiqlashtiradigan ikki tomonlama mexanizmlarni shakllantirish orqali sud-huquq tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qilish [9].

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ekstraditsiya sohasidagi masalalarni tartibga solingan bo'lib, tegishli topshiriq normalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslarida hamda davlatlar o'rtasida tuzilgan ikki tomonlama shartnomalarda aks ettirilgan.

Shu bilan birga, fikrimizcha, amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikni yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Bizningcha, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 603-moddasi "*O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan shaxsni xorijiy davlatga ushlab berishni rad etish*"ga qo'shimcha sifatida "agar so'rovchi davlat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarga ega bo'lgan shaxsni nisbatan yuborilgan bo'lsa, uning topshirilishiga yo'l qo'yilmaydi" degan mazmundagi normani kiritish zarur. Chunki bunday ma'lumotlarni oshkor etish davlatning suvereniteti, xavfsizligi va boshqa manfaatlariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin [10; 54-b.].

Normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, hozirgi kunda ekstraditsiya institutida qator hal etilmagan muammolar mavjud. Jumladan, ekstraditsiyaning huquqiy tabiatiga oid yondashuvlar turlicha bo'lib, uning mazmunini bir xilda talqin qilish mumkin emas. Ayrim olimlar jinoyatchilarni topshirish jarayonini ma'muriy tabiatga ega deb baholaydilar, chunki amaliyotda bu ko'p hollarda sud tomonidan emas, balki hukumat yoki vakolatli davlat organlari tomonidan qabul qilinadi. Shu bois, mazkur institutni ma'muriy-huquqiy yoki davlat huquqi sohasiga mansub deb qarash asosli hisoblanadi. Biroq, ekstraditsiyaning jinoyat-protsessual huquq doirasida o'rganilishi ham muhim, zero shaxsni boshqa davlatga topshirish muayyan protsessual qoidalar va huquqiy kafolatlarga rioya etilgan holda ijro etilishi lozim. Shuningdek, ayrim nazariyalarda ekstraditsiya jinoyat huquqining jazoni ijro etish instituti bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida ham izohlanadi, chunki sud hukmining ijrosini ta'minlash vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Yevropa mamlakatlari amaliyotida ekstraditsiya masalasi yuzasidan qaror qabul qilish, odatda, sud hokimiyati vakolatiga kiradi va bu vazifa asosan umumiy yurisdiksiyaga ega jinoyat sudlari tomonidan amalga oshiriladi. Biroq, ayrim davlatlar jinoyatchilarni topshirish bilan bog'liq nizolarni hal etish uchun maxsus vakolatga ega sud tuzilmalarini – ekstraordinar sudlarni shakl-

lantirishni huquqiy jihatdan maqbul yo'l sifatida baholaydilar. Shu bois, xalqaro adliya tizimida bunday sud organlarini joriy etishning huquqiy ahamiyati va maqsadga muvofiqligini ilmiy hamda amaliy jihatdan chuqur tahlil etish talab etiladi.

Ekstraditsiya institutining xalqaro shartnomalar va davlatlarning milliy qonunchiligida aniq ta'rifi mavjud emas. Xususan, "ekstraditsiya" atamasi qonunchilikda huquqiy jihatdan belgilab qo'yilmagan, shuningdek, "jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam", "jinoyatchi shaxsni topshirish", "hukm qilingan shaxsni berish" kabi tushunchalarni huquqiy ta'riflari shakllantirilmagan. Bu holat ekstraditsiya institutining murakkab va dolzarb huquqiy muammo sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Ayniqsa, masala yuqori davlat lavozimli shaxslarining xalqaro huquqiy javobgarligi bilan bog'liq bo'lgan hollarda uning nazariy va amaliy ahamiyati keskin ortadi.

Ekstraditsiya masalalari turli sohaviy qonunlar bilan tartibga solinadigan davlatlarda huquqiy normalarning takrorlanishi kuzatiladi. Biroq, shu bilan birga, ekstraditsiyadan bosh tortish uchun huquqiy asoslarga oid qator muhim qoidalar nazarda tutilmagan. Shu munosabat bilan ekstraditsiya masalalarini yagona tartibda belgilash maqsadga muvofiqdir. Bu muayyan bir sohaviy

qonunchilik yoki maxsus "Ekstraditsiya to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinishi lozim.

Bundan tashqari, namunaviy ekstraditsiya shartnomalari ushbu masalaga o'xshash yondashuvni qo'llash imkonini yaratadi. Natijada, bu yo'nalishda yagona huquqiy standartlarni shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi, bu esa amaliyotda ekstraditsiyani ta'minlash jarayonida turli nizo va muammolarning oldini olishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda xalqaro huquqda barcha davlatlar ishtirokini nazarda tutuvchi universal xalqaro shartnoma (konvensiya) mavjud emas.

Ekstraditsiya munosabatlarini huquqiy tartibga solish, ko'p hollarda, ikki tomonlama xalqaro shartnomalarga tayanadi. Shu bilan birga, ayrim vaziyatlarda bunday kelishuvlar mavjud bo'lmagan holda masala milliy qonunchilik asosida hal qiladi. Bizningcha, ekstraditsiya sohasidagi qoidalarni unifikatsiya qilish muammosi BMT doirasida universal xarakterga ega bo'lgan maxsus konvensiya qabul qilish orqali yechimini topishi mumkin. Bunday xalqaro hujjat davlatlarning milliy qonunchiligini yanada takomillashtirish va bir xil qoidalar asosida muvofiq-lashtirish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma'lumotnomasi.
2. Tankiyev D.T., Xusainov O.B. Ekstraditsiyani amalga oshirish jarayonida inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari // Abay nomidagi QazNPU xabarchisi. "Xalqaro hayot va siyosat" seriyasi. – 2022. – №4 (71). – 33–34-b.
3. Сафаров Н.А. Экстрадиция в международном уголовном праве: проблема теории и практики. – Москва, 2015. – 158 с.
4. Шабунин А.В. Экстрадиция в международном праве: правило двойного вменения // Вестник международного права. – 2020. – №3. – С.45–46.
5. Кузнецов Д.В. Развитие международного права XX в.: Монография. – Москва, 2001. – 87 с.
6. Кучухидзе С.Т. Некоторые вопросы исторического развития института экстрадиции // Московский журнал международного права. – 2007. – №4. – 48 с.
7. Fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Minsk konvensiyasi (22.01.1993) // <https://lex.uz/docs/2741652>.
8. Fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Kishinyov konvensiyasi (07.10.2002) // <https://lex.uz/ru/docs/4905558>.
9. Европейская конвенция о выдаче (Париж, 13 декабря 1957 года) // <https://rm.coe.int/16800645eb>.
10. Воложенкина В.М. Выдача в российском уголовном процессе // Юрлитинформ. – 2017. – №5. – 54 с.